

Date: 15<sup>th</sup>December-2024

PEDAGOGIK FAOLIYATDA BOLALAR NUTQINI O‘STIRUVCHI  
PSIXOLOGIK MASHG‘ULOTLAR

**Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o‘g‘li**

International school of finance technology and science instituti Psixologiya va pedagogika kafedrası mudiri, Psixologiya fanlari doktori, (DSc)

**Azimjonova Dilshoda**

International school of finance technology and science institute Pedagogika,  
1-kurs 24-PD-01 guruhi talabasi

**Annotatsiya.** Ta‘lim jarayonida bolalar nutqini o‘stiruvchi psixologik mashg‘ulotlarni qo‘llash orqali bolalarda nutqiy ko‘nikmalarni oshirish, tanqidiy va va kreativ fikrlash, bolalardagi moslashuvchanlik, muloqotchanlik ko‘nikmalarini oshirishga erishish mumkin. Shu o‘rinda ushbu maqola bolalar nutqini o‘stiruvchi psixologik mashg‘ulotlarni pedagogik amaliyotda qo‘llashning samarali usul va vositalarini o‘rganishga qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik faoliyat, nutq, moslashuvchanlik, muloqotchanlik, nutqni o‘stirish.

**Аннотация.** Улучшить речевые навыки детей, критическое и творческое мышление, гибкость и коммуникативные навыки у детей можно с помощью психологических упражнений, развивающих речь детей в образовательном процессе. На данный момент в данной статье основное внимание уделяется изучению эффективных методов и средств использования психологических упражнений, развивающих речь детей, в педагогической практике.

**Ключевые слова:** педагогическая деятельность, речь, гибкость, общение, речевое развитие.

**Abstract.** It is possible to improve children's speech skills, critical and creative thinking, flexibility and communication skills in children with the help of psychological exercises that develop children's speech in the educational process. At the moment, this article focuses on the study of effective methods and means of using psychological exercises that develop children's speech in pedagogical practice.

**Keywords:** pedagogical activity, speech, flexibility, communication, speech development.

**Kirish.**

Nutq – insonning o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash vositasi bo‘lib, u bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bolalar nutqining o‘z vaqtida va to‘liq rivojlanishi ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biridir. Biroq, pedagogik faoliyatda bolalar nutqida muammolar ko‘p uchrab turadi, masalan, talaffuzdagi qiyinchiliklar, leksik cheklovlar yoki nutq faolligining pastligi. Psixologik mashg‘ulotlar ushbu muammolarni hal qilishda samarali vosita bo‘lib, bolaning psixologik rivojlanishini va kommunikativ ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ushbu muammolarni o‘rganishda bolalar nutqining rivojlanishi va uning pedagogik ahamiyatini, bolalar nutqini o‘shidagi psixologik va pedagogik muommolar o‘rganish,



Date: 15<sup>th</sup>December-2024

psixologik mashg'ulotlarning bolalar nutqiga ta'sirini o'rganishning ahamiyatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

### **Asosiy qism.**

Nutq rivojlanishi bolaning umumiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bolaning til va nutq ko'nikmalari uning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini ko'rsatadi. Nutq, bola tomonidan atrof-muhitni tushunish va o'zaro muloqot qilish imkoniyatlarini yaratadi. Bolalar nutqining rivojlanishi to'g'ri pedagogik yondashuvni talab qiladi. Pedagogning vazifasi bolaga o'z fikrlarini aniq va to'liq ifodalashni o'rgatishdir. Nutqning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar orasida yosh, atrof-muhit va o'qituvchining metodik yondashuvi katta ahamiyatga ega.

Bolalar nutqining rivojlanishi ba'zan turli muammolarning vujudga kelishi bilan birga kechadi. Bu muammolar orasida talaffuzdagi qiyinchiliklar, so'z boyligining cheklanishi, nutq faolligining pastligi kabi holatlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu holatlar psixologik omillar bilan bog'liq bo'lib, bolalarning ijtimoiy muhitdan ajralishi yoki ota-onalar bilan kam suhbatlashish nutqning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Oilaviy munosabatlarda yetishmayotgan nutqiy va muloqotdagi ehtiyojlarni bugungi kunda ta'lim muassasalari tomonidan to'ldirilishi talab etilayotgani hech kimga sir emas. Shu o'rinda pedagogik jihatdan, nutqni rivojlantirishda yetarli darajada trening, mashg'ulotlar va o'zaro aloqalar o'rnatilmasligi bolalarning nutq o'sishini to'xtatishi mumkin.

Pedagogik jarayonda psixologik mashg'ulotlar bolalar nutqini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib, ular bolalarning nutq faolligini oshiradi. Nutqni rivojlantirish uchun psixologik mashg'ulotlarda turli texnikalar va metodikalar qo'llanilishi mumkin. Masalan, bola bilan o'zaro muloqotda bo'lish, turli topshiriqlar berish, rasm yoki hikoyalar asosida nutqni rivojlantirish kabi usullar bolalarning tilni o'zlashtirishda samarali bo'ladi. Psixologik mashg'ulotlarning asosiy maqsadi bolalarning o'zini ifodalash qobiliyatini oshirish, ularga psixologik qo'llab-quvvatlashni taqdim etish va nutqni to'g'ri ishlatishni o'rgatishdan iboratdir.

Maktabgacha davrdagi bolalarning nutqini rivojlantirish muhim va murakkab jarayondir. Ushbu davrda nutqni rivojlantirishning asosiy davri - o'yin faoliyati davri bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra, mashg'ulotlar o'yin shaklida olib borilsa, samaraliroq bo'ladi. Odatda o'yin shaklida faoliyat yuritishni talab qilishning hojati yo'q, chunki aslida har qanday o'yin bolalarda katta qiziqish uyg'otadi.

Bolaning nutqini rivojlantirishga o'yinchoqning ta'siri katta. O'yinchoqlar bilan har kuni o'tkazadigan o'yinlarida bola nafaqat o'zi foydalanadigan ob'ektlarni, balki ularning xususiyatlari, o'lchamlari, shakli, rangi va boshqalarni ham nomlashni o'rganadi. U o'yinchoqlarni o'yinga o'z g'oyalariga mos ravishda qo'shadi va ularning qolganlari bilan munosabatlarini aniqlaydi. O'yinda ishtirok etadigan narsalar va shaxslar orqali ijtimoiylashadi. Bola o'yindagi barcha harakatlarini nutq bilan birga olib boradi. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarga tasvirlay olish, kuzatuvchanlik va bilish qobiliyatlarni shakllantirish maqsadida "Toping va tavsiflang" o'yinida tashkil etish mumkin. Ushbu o'yinni tashkil etish uchun turli xil o'yinchoqlar tanlanadi: ikkita qo'g'irchoq - biri kamon



Date: 15<sup>th</sup>December-2024



bilan, ikkinchisi kamonsiz; turli xil rangdagi ikkita mushuk. O'yinchoqlar birma-bir ko'rib chiqiladi va taqqoslanadi; ularning xarakterli xususiyatlari va farqlarini aytish orqali bolaning lug'at boyligi faollashtiriladi. Keyin tarbiyachi o'yinchoqlarni yashiradi (bolalar ularni tezda topishi uchun) va ularni topishni taklif qiladi: "Aziz oq mushukchani, Malika qora rangni, Nigora esa kamonli qo'g'irchoqni topadi". Bolalar o'yinchoqlarni topib olib kelishadi, o'qituvchining savollari ("Sizda qanday mushuk bor? Mushukning boshida nima bor? Va bu nima?") Bola tarbiyachi yordamida ularni nomlaydi va tavsiflaydi. Ushbu suhbat natijasida bolalarning turlicha javoblari asosida fikrlar umumlashtirildi: «Malika qora mushukchani topdi. Uning boshida quloqlari, katta ko'zlari, mo'ylovi bor. Mushukchanning ham uzun dumi bor. "Bolalar savollarga yaxshi va to'g'ri javob berishni o'rgansalar, tarbiyachining tavsifini takrorlashlari so'raladi. Shunday qilib, bu yerda bolaga mavzuni tavsiflashda yordam berishga qaratilgan kuzatish, ko'rib chiqish, savol-javob, suhbat, analiz-sintez metodlar qo'llaniladi. Bolaning og'zaki nutqini rivojlantirish va uning so'z boyligini boyitish vositasi sifatida o'yinchoqlardan foydalanish tez samara beradi. O'yinchoq bolada lug'atni mustahkamlash va faollashtirish imkoniyatini yaratadi, yangi so'zlarning manbai bo'lib xizmat qiladi. O'yinchoq bolada faqat ijobiy his-tuyg'ularni, gapirishga bo'lgan istakni uyg'otadi. Bolaning tasvirlash va hikoya qilishga bo'lgan qiziqishi orqali bilimlari ortib boradi [5].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at sostavini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchining fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchilarning barcha predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaratiladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. O'quvchilar nutqini o'stirishning mashg'ulotning boshqa turlari bilan bog'liqligi. O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar: ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi. O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala normalari haqida bilim beradi; bu darsda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular predmet,

Date: 15<sup>th</sup>December-2024



harakat, belgi bildiradigan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, o'zak, so'z, so'z yasovchi, forma yasovchi, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, son, fe'l, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap; turlanish, bosh kelishik singari juda ko'p yangi terminlarni bilib oladilar. Boshlang'ich sinfdagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Matematika darslarida bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko'p so'z va terminlar bilan o'z nutqlarini boyitadilar.

O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan predmetlarini o'qituvchi yordamida guruhlaydilar, ularni o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, o'z navbatida, tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi va tafakkurini o'stiradi. Mehnat va rasm darslari ham, jismoniy tarbiya, ashula darslari ham, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlar ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishga imkon beradi. O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til normalariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, ham doim o'quvchi daftariga barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur [6].

#### **Xulosa.**

Bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik faoliyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Psixologik mashg'ulotlar esa bu jarayonda samarali vosita bo'lib, bolaning psixologik va kommunikativ rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Nutqning to'g'ri rivojlanishi bolaga kelajakda muvaffaqiyatli o'qish, o'z fikrlarini to'g'ri ifodalash va atrof-muhit bilan samarali muloqot qilish imkoniyatlarini yaratadi. Shu o'rinda pedagogik faoliyatda bolalar nutqining rivojlanishiga psixologik yondashuvni qo'llash juda muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abduqodirov, B. (2016). Nutq rivojlanishida pedagogik metodlar va texnikalar. Toshkent: Ziyo Nuri.
2. Abdusamatov, H. (2022). Social and psychological problems of children of migrant families.
3. Baxtiyorovna, S. D. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqotchanlikni kuchaytiruvchi psixologik mashg'ulotlar. Modern World Education: New Age Problems–New solutions, 1(3), 30-34.
4. Baxtiyarovna, S. D., Orzugul, Q., & Sarvinoz, M. (2024). Xorijiy tillarni o'rganuvchi o'spirinlarda og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishning ahamiyati. Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies., 1(2), 22-26.
5. Qurbonova M.F., Bekpo'latova T.N. Bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishda o'yin va o'yinchoqlarning o'rni «Scientific progress» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 593
6. Saidvoqqosova U.T. "O'quvchilar nutqini o'stirish metodikasi" Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis) ilmiy jurnali bilan hamkorlikda. "Yangi o'zbekistonning umidli yoshlari" 1(3)-son 2022-yil 28-aprel

Date: 15<sup>th</sup>December-2024

7. Xudoyberdiyeva, N. (2010). Bolalar nutqini rivojlantirishda psixologik yondashuvlar. Toshkent: Ma'naviyat.



**International Conferences**  
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

